

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI  
RAG`BATLANTIRISH**

**Rasulova Nigora Nematovna**

*BuxMTI "Iqtisodiyot" kafedrası katta o`qituvchisi Buxoro sh.*

[nigorarasulova.75@gmail.com](mailto:nigorarasulova.75@gmail.com)

**СТИМУЛИРОВАНИЕ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В  
РЕГИОНЫ**

**Расулова Нигора Нематовна**

*старший преподаватель кафедры «Экономика» БухИТИ*

**STIMULATING ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT IN THE REGIONS**

**Rasulova Nigora Nematovna**

*Senior Lecturer, Department of Economics, BukhITI*

Respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Ushbu hududiy farqlarni, shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish maqsadida davlat tomonidan belgilangan mintaqaviy siyosat yuritiladi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarning ham o'ziga xos o'рни bor.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash, daromadi va turmush farovonligini oshirishga strategik yo'nalish sifatida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadida viloyatlarga tashrifida, birinchi navbatda, hududlar iqtisodiyotidagi o'sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Jahon iqtisodiyotidagi ilg'or tajribalarga ko'ra, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.[6] Bugungi kunda mamlakatimizda 24 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ularning 20 tasi 2016-yildan keyin tashkil etildi. Bu o'rinda umumiy erkin iqtisodiy zonalardan tashqari alohida sohalar, jumladan, turizm, farmatsevtika kabi muhim jabhalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yo'lga qo'yilganini alohida qayd etish zarur.

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

Faqatgina davlat budjeti mablagʻlari yoki bank kreditlari hisobidan hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini moliyalashtirish asosida mintaqalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish mushkul masala. Shu bois, bu borada xususiy sektorning ijtimoiy masʼuliyatini oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida loyihalarni amalga oshirish ham oldimizda turgan strategik vazifalar ijrosida muhim oʻringa ega. Ayni imkoniyatlardan foydalangan holda energetika, kommunal xizmatlar, sogʻliqni saqlash, suv xoʻjaligi, taʼlim, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarida hududlar boʻyicha qariyb 2,2 milliard AQSH dollariga teng qator loyihalar amalga oshirilyapti.[4]

Energetika sohasida Navoiy, Sirdaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida amalga oshirilayotgan loyihalar istiqbolda hududlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunki energetika sohasi rivojisiz nafaqat ijtimoiy soha, balki biznes taraqqiyotini ham tasavvur qilish qiyin.

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining xarakteri va miqyoslariga bogʻliq. Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi boʻlib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi. Oʻzbekiston hukumati tomonidan mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotini tizimli qayta qurishning muhim omili sifatida chet el investitsiyalarni ushbu jarayonga faol jalb qilishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy oʻsishga erishish uchun nafaqat investitsiya hajmini koʻpaytirish, balki ular yoʻnalishini va tuzilmasini toʻgʻri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarni tanlash zarurki, ular tezda oʻzini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olsinlar. Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsion jarayonni jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xoʻjalik yuritish subʼektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida koʻrilayotgan choralarga qaramasdan, hozirgi vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va faoliyat yuritishida hududiy nomutanosibliklar kuzatilmoqda.

Respublika olimlarining tadqiqotlariga koʻra, mintaqalarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu boʻyicha integral indeks aniqlanadi [9]:

1. Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi
2. Hududning moliyaviy resurslar bilan taʼminlanishi
3. Investitsion infratuzilma rivojlanish darajasi
4. Hududning demografik tavsifi
5. Institutsional oʻzgarishlar va rivojlanish darajasi
6. Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi darajasi

Prezidentning “Oʻzbekistonning 2023-2025 yillarga moʻljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq strategik investitsiya



## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

loyihalari ro'yxati, tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxati va boshqalar tasdiqlandi.[2]

### 1-jadval

**To 'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilingan holda Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining Energetika vazirligi tashabbusi asosidagi manzilli ro'yxati, mln.dollar**

| Loyiha<br>tashabbuskorlari va<br>loyiha nomi                                                                                                                                             | Amalg<br>a<br>oshirish<br>muddati | Xorijiy<br>hamkor/kreditor                                     | Davlat<br>nomi        | Xorijiy<br>investitsiyalar<br>umumiy<br>qiymati |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------------------|-----------------------|-------------------------------------------------|
| <b>Yangi qurilishlar</b>                                                                                                                                                                 |                                   |                                                                |                       |                                                 |
| Buxoro viloyatining<br>Peshku tumanida<br>quvvati 500 MVt<br>bo'lgan shamol elektr<br>stansiyasini qurish<br>(DXSh loyihasi)                                                             | 2020<br>— 2025-<br>yy.            | “ACWA POWER<br>DZNANKELDI<br>WIND” MChJ                        | Saudiya<br>Arabistoni | 650,0                                           |
| Buxoro viloyati<br>G'ijduvon tumanida<br>quvvati 500 MVt<br>bo'lgan shamol elektr<br>stansiyasini qurish<br>(DXSh loyihasi)                                                              | 2020<br>— 2025-<br>yy.            | “ACWA POWER<br>DZNANKELDI<br>WIND” MChJ                        | Saudiya<br>Arabistoni | 650,0                                           |
| Buxoro viloyatida<br>quvvati 500 MVt<br>bo'lgan quyosh elektr<br>stansiyasini qurish                                                                                                     | 2023-<br>2024-yy.                 | “SEPCO III”,<br>“China Energy<br>Group”, “Dongfan<br>electric” | Xitoy                 | 400,0                                           |
| <b>Boshqa yo`nalishlar</b>                                                                                                                                                               |                                   |                                                                |                       |                                                 |
| “Qandim guruhi”<br>konlarini gazni qayta<br>ishlash zavodi qurilishi<br>bilan o'zlashtirish,<br>Xauzak va Shodi<br>konlarini o'zlashtirish<br>hamda Qo'ng'iro't<br>uchastkasida mahsulot | 2004<br>— 2046<br>yy.             | “LUKOIL<br>Uzbekistan<br>Operating<br>Company” MChJ<br>XK      | Rossiya               | 6 250,0                                         |

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

|                                                                                 |  |  |  |  |
|---------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--|
| taqsimotiga oid bitim<br>asosida geologiya-<br>qidiruv ishlarini olib<br>borish |  |  |  |  |
|---------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--|

O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadidan kelib chiqib, hududlarda investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish maqsadida: davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish; respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish; viloyatlarda biznesga ko'mak markazlari tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish; Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni o'tkazib borish vazifalari belgilandi.[3]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi hududlarda qulay investitsiya muhitini, bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Hududlarning iqtisodiy o'sishini va qulay investitsion muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jadallashtirishda, hal qiluvchi rolni ishlab chiqarishga investitsiyalar o'ynashi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni
2. 28.12.2022 yildagi PQ-459-son "O'zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
3. 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
4. Акрамова О. К. Обеспечение инвестиционной безопасности как автономный фактор повышения инвестиционной привлекательности //Информатика. Экономика. Управление/Informatics. Economics. Management. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 0208-0216.
5. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. Интернаука, (22-3), 88-90.
6. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." Central Asian Problems of Modern Science and Education 2020.1 (2020): 48-55.